

QADIMGI XORAZM TARIXINI ARXEOLOGIK JIHATDAN O'RGANISH

Rahimov Furqat Jabberganovich

Ichan-Qal'a davlat muzey-qa'riqxonasi.

Qadimgi Xorazm tarixi bo'limi mudiri.

Qalandarova Zuhra Otanazarova

Ichan-Qal'a davlat muzey-qa'riqxonasi.

Qadimgi Xorazm tarixi bo'limi ilmiy xodimi.

Annotatsiya: Agar, qadimgi Sharq xalqlari madaniyati, jahon xalqlari evolyusiyasiga poydevor bo'lganidek, Markaziy Osiyo xalqlari ko'hna madaniyatida ushbu Sharq an'analari aks etadi. Jumladan, yurtimizning har bir qarich yeri, ma'lum bir tarixiy xodisa va voqeyalardan hikoya qiladi. Bu borada esa ko'hna Xorazm o'lkasi, nafaqat Otashparastlik dinining vatani sifatida e'tirof etish balki, uzoq-yaqin davlatlarning milliy an'ana, urf-odatlarining sintezi, ilm-fan va madaniyatining integratsiyasi va transformatsiyasi asosida rivojlandi. Chindan ham Buyuk ipak yo'li chorahasida joylashgani bois yurtimiz, jahon madaniyatiga dahldor voqeyalarni ilmiy o'rganish, tadqiq etishdan ko'plab ilmiy ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.

Kalit so'zlar: Misr, Bobil, Hindiston, Xitoy, falsafa, teologiya, tarix, madaniyat, veda bitiklari, otashparastlik, zardo'shtiylik, Avesto, ko'hna, qadim, Sharq, din, dunyoqarash, tafakkur, qadimshunoslik (arxeologiya), antropologiya, etnologiya, etnografiya, bo'rtma tasvir, dunyo, me'morchilik, me'moriy yodgorlik, me'moriy majmua.

Sho'rolar davrida o'lkamiz tarixi, davriy mafkura talqinida baholandi chunki, u vaqtda madaniyatshunoslika burjuaziya fani sifatida qarab, o'rganish taqiqlangandi. Yurtimiz mustaqillika erishganidan so'ng xalqimiz, o'tmishiga doir tarixiy muammolar holis va ilmiy asosda o'rganila boshlandi. Biroq, o'tmish ajdodlar madaniyati va madaniy merosiga bo'lgan munosabat hamda muammolarni tarix va boshqa turdosh ijtimoiy fanlar nuqtai nazaridan o'rganish ayrim yetishmovchilik, kentiklarning o'rnini to'ldirolmadi. Madaniyatshunoslik fani manbalarni tadqiq etishga arxeologiya, antropologiya, etnologiya, etnografiya, tilshunoslik, adabiyotshunoslik va san'atshunoslik fanlari bilan uzviy hamda qiyosiy tarzda o'rganadi. Jumladan, manbashunoslikda yozma manbalar qatorida xalq og'zaki ijodi, asotirlar, mifologiya kabi manbalarga murojaat qilishda qadimgi insonlar fikridan farq qilsada, zamonaviy inson tasavvur hamda tafakkurini ham ishga soladi. O'tmish va hozirgi bilimlar o'rtasida juda ulkan tafovut mavjud xususan, yozma manbalarni o'rganishda tadqiqotchi diaxronik lingvistika, kiyosiy tarixiy tilshunoslikdan bohabar bo'lishi lozim. Eramizdan avvalgi II ming yillik so'ngi davrida Markaziy Osiyo qabi-

lari til va e'tiqod birligida o'zaro transformatsiya jarayonidan ilk davlatchilik shakllandi. Ibtidoiy davrda o'lkamizda taraqqiy etgan turli diniy e'tiqod va marosimlari, taraqqiy etgan Sharq xalqlari diniy tafakkuri va dunyoqarashi ta'siridan vaqtlar o'tib, muqim tus oldi [1].

Eramizdan avvalgi II ming yillikda qabilalar birlashib, davlatchilik shakllana boshlagan bir paytda o'lkamizda turli diniy e'tiqodlar va maro-simlar o'zaro integratsiyasi, vaqt o'tishi bilan muqim tus olishi tabiiy bo'lgan. Bronza davrining so'ngi davrida uchta asosiy e'tiqod an'alarining o'zaro ta'siri bilan ajralib turadi: xaoma quyish bilan bog'liq mitraistik, olov e'tiqodi hukmron bo'lgan avestocha hamda So'g'ddan shimol va sharq tomonda yashovchi chorvador qabilalarida veda mavzulari aralashgan. Integratsiya-lotinja, Integratio-tiklash, to'ldirish, integer-butun so'zi-dan tizim (sistema) yoki organizmning ayrim qism va funksiyalarining o'zaro bog'liqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifoda-laydigan tushuncha hisoblanadi [2].

Abu Rayhon Beruniy "Hindiston" asarida rishi, hikmatshunoslarga ilohiy ilmlari bois, hindlar inson qiyofasidagi farishta sifatida qarab, deyarli ulardan afzal va ortiq deb bilishganini chunki, farishtalar ham rishilar bilimidan foydalanadi, deya hisoblashganini, ta'kidlaydi. "...Diniy e'tiqodlarning yuzaga kelishida, tabiiy va inson omillaridan tashqari, davlatchilik turi ham ahamiyatga ega bo'lgan. O'zbekiston zaminida qadimda o'z tarixiy an'anasi asosida vujudga kelgan e'tiqodlar bilan kelgindi bosqinchilar davlatchiligi keltirgan e'tiqodlar o'rtasida vaqt-vaqti bilan ayrim tafovutlar yuzaga kelgan..."[1]. Avesto, muqaddas kitobi xususan Xorazmda milloddan avvalgi I ming yillikning I yarmida vujudga kelgani qayd etilgan, bu fikrni geografik ma'lumotlar ham tasdiqlab turibdi. Kitobda tangri yaratgan muqaddas zamin: qadimgi Xorazm, Gava (Sug'd), Marg'iyona (Marv) va Baqtriya (Balx) nomlari tilga olinib, Orol dengizi (Vorukasha yohud Vurukasha) va Amudaryo (Daiti) sersuv daryo qirg'oqlaridagi xosildor zaminli bog'-rog', serxosil dala, bepayon o'tloq va dashtdan iboratligi tavsiflanadi. Avestoda nomlari qayd etilgan xalqning ilk vatani Sirdaryo, Amudaryo etaklari va Zarafshon vodiysining tabiati boy hamda ko'rkamligi keltirib o'tilgan. Shuningdek, "Xorazm" so'zi dastlab "Avesto"da uchraydi, "Avesto"ning "Mitra yasht" deb ataluvchi 5-bo'lim, 14-qismida Sug'd nomi bilan birga Xorazm ham eslanadi. S.P.Tolstov ushbu fikrni rivojlantirib ko'pchilik qadimgi mamlakat-larning nomlari etnik nomlar bilan bog'liq ekanligini to'g'ri ta'kidlagani holda "Xorazm" atamasining etimologiyasini qadimgi Mitanni davlati qabilasi nomi xurritlar bilan bog'lagan.

Keltirilgan fikrlardan shuni bilishimiz mumkinki, "Xorazm" atamasi tarixiy manbalarda eslatila-digan xalq nomi bo'lib, bu etnik atama milloddan avvalgi VI asrda Amudaryoning quyi havzasida yashovchi o'troq aholining umumetnogeografik nomiga aylanadi [6]. Arxeolog olim M.Masson esa Markaziy Osiyo-Hindiston

madaniy sintezining eng oliy yutug'i-Kushon sivilizatsiyasi ta'sirida shakllangan bo'lib, har ikkisi ham madaniy, iqtisodiy va siyosiy markaz hisoblanadi. Baktriya davlati taraqqiyotining asosi bo'lib, Shimoliy-G'arbiy Hindiston-ning bronza davriga oid yutuqlari xizmat qilgan. Shu tariqa, Xorazmga dastlab, hind va buddaviylik unsurlar i o'z ta'sirini o'tkazgan bo'lsa keyinchalik, yunon madaniyati transformatsiyasiga uchradi. Ammo, II asr oxiriga kelib esa, Kushon imperiyasi inhirozga uchraydi.

Darhaqiqat, qadimgi Xorazm madaniyati yurtimiz tarixida alohida ahamiyat kasb etib, o'lkamiz xalqlarining eng qadimgi davrga oid yozma va og'zaki adabiyot na'munalari, tarixiy kitoblar, Beruniy asarlari orqali ma'lumotlar bizgacha yetib kelgan. E. Rtveladze fikriga ko'ra, madaniyatlar insoniyat tarixining barcha davrlariga mansub bo'lib, davlatchilik esa muayyan shart-sharoitlar shakllanganda kelib chiqadi. Binobarin, diniy e'tiqodlar, madaniyatning tarkibiy qismi sifatida davlatchilik asosini tashkil etishi tabiiy xolatdir.. "Avesto"da o'tmish ajdodlar ijtimoiy-falsafiy va ma'naviy fikr majmuasi sifatida qadim tarixi va madaniyatimizni o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Garchi Avestoda muqaddas bitiklar paxlaviy tilida yozilgan bo'lsada ammo, Zardushtiylik va Otashparastlik nomi bilan ataladi, ayrim manbalarda esa olovga sig'inuvchilar atamasi ham qo'llaniladi biroq, bu atama keng ommalashmagan. Zardushtiylik yoki Otashparastlik har ikki atama ham forsiy tilda ekanligi biroz taajubga soladi. Eng muximi, "Avesto" Sharq xalqlari yozma adabiyoti, ilm-ma'rifatini eng ko'hna manbasi sifatida diniy va dunyoviy jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi. "Avesto"da qadim Turon diyorining o'ziga xos tarixiy geografiyasi bayon etiladi. Xullas, bu din qadim ajdodlarning ezgulik va baxt-saodatga erishish, shu yo'lda halol mehnat qilish, adolat va haqgo'ylik, poklik va nurli kelajaka erishish g'oyasi yotadi.

Xulosa o'rnida yurtimiz madaniyati va tarixini o'rganishda ilmiy asoslangan haqiqatni yuzaga chiqarishdan yosh avlodni vatanparvalik ruhida tarbiyalashda asosiy omil bo'ladi. Chunki, yurtimiz qadim o'tmishi haqida xitoylik, grek va arab tarixchilari tomonidan yozib qoldirilgan manbalar bilan bir qatorda arxeologik, antropologik, xalq og'zaki ijodi namunalari asosida boyitiladi. Ushbu yozma yodgorliklarni qiyosiy darajada o'rganishdan ilmiy asoslangan manbalarga ega bo'lish mumkin. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshu-noslik, boshqa ilmiy muassasalarda va xorij davlatlarga tarqab ketgan qo'lyozmalarni yig'ish hamda o'rganishdan o'tmish tariximizni har jihatdan oydinlashtiramiz. O'rganilgan manbalarni dunyoning ommalashgan xorijiy tillariga o'girishdan yutmiz xaqida xorijliklarni mukammal bilishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karomatov X.S. O'zbekistonda moziy e'tiqodlar tarixi. T.:2008, -B.-19,-20,26.
2. Кравченко А. И. Культурология Учебное пособие. –М.: Наука, -С.-486, 2018.

3. Xolmirzaev X.D., Kadirova Ya.B., Kadirova X.B. Madaniyatshunoslik.-B. 190.-T.-2022.
4. O‘zbekiston tarixi. I-jild. I-kitob, T.: O‘zMU-2017,-97.
5. Ibrohimov A. Vedalar. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-v/vedalar-uz/>
6. Толстов С.П. Древности Верхнего Хорезма // ВДИ. – М., 1941. – № 1 (14).– С. -155-160.
7. Xodjaniyazov G‘. Qadimgi Xorazm mudofaa inshoot-i.-T.:2007.-B. -32.
8. Avesto tarixidan. <https://Zamahshariy.uz>
9. Тревер К., Александр Македонский в Согде, «Вестник истории», 1947.
10. Ртвеладзе Э.В. Александр Македонский в Трансоксиане. Походы. Историческая география. –М.: Евразия, 2019, -С.-368.